




**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI HUZURIDAGI**



Respublika
Ta'lim Markazi

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

**2020-2021-O'QUV YILIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM
MAKTABLARINING 10-SINF O'QUVCHILARI UCHUN BOSQICHLI
IMTIHON O'TKAZISH BO'YICHA GEOGRAFIYA FANIDAN METODIK
TAVSIYA VA MATERIALLAR**



Toshkent-2021

Imtihon materiallari Respublika ta'limi markazining navbatdan tashqari ilmiy-uslubiy kengashida muhokamaga qoyilib, tavsiya qilindi (2021-yil 31-martdagi 1-son Ilmiy-metodik kengash qarori).

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-sinf o'quvchilari bosqichli nazorat imtihonini o'tkazish bo'yicha metodik tavsiya va materiallarni tijorat maqsadda ko'paytirib tarqatish taqiqlanadi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari metodbirlashmalari bosqichli nazorat imtihoni materiallariga 15-20% gacha o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

Tuzuvchi:

V.N.Fedorko - Toshkent shahar Olmazor tumanidagi 233-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining oliy toifali geografiya fani o'qituvchisi, geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Taqrizchilar:

1. F. Rajabov – Toshkent viloyat Chirchiq davlat pedagogika instituti geografiya kafedrasini mudiri, geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

2. S. Berdiyeva – Toshkent shahar Mirobod tumanidagi 213-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining oliy toifali geografiya fani o'qituvchisi.

GEOGRAFIYA

10-SINF

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining X sinfini tugatgan o'quvchilar geografiya fanidan DTS bo'yicha ma'lum darajadagi kompetentsiyalarga ega bo'ladilar. O'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida 2020-2021 o'quv yilida X sinflarda bosqichli imtihon bilet savollariga og'zaki javob berish usulida o'tkaziladi.

Har bir o'quvchi bittadan biletni tanlab oladi. Tayyorgarlik ko'rish uchun 20 daqiqa vaqt beriladi. Imtihon biletida 3 ta savol va topshiriq berilgan. Birinchisi X sinf geografiya kursida o'tilgan mavzularga oid nazariy savol, ikkinchisi X sinf geografiya kursida o'rganilgan atamalardan ikkitasini mazmun-mohiyatini ochib berishga qaratilgan topshiriq, uchinchisi esa xarita bilan ishlash orqali yechiladigan amaliy topshiriq tarzida berilgan.

Har bir berilgan savolga javob 5 ballik tizim asosida baholanadi. Masalan: 1-savolga 3, 2-savolga 5, 3-savolga 4 qo'yilib, baholar umumlashtirilib so'ngra ulardan o'rtacha ball chiqariladi. $3+5+4 = 12:3=4$

O'quvchilarni baholashda qo'yiladigan ball ular egallashlari lozim bo'lgan kompetentsiyalardan kelib chiqib belgilanadi.

Nazariy savollarga berilgan javoblar baholash mezonlari

t/r	Baholash mezonlari	Ball
1.	O'quvchi tomonidan savolga javob mazmunan atroflicha ochib berilgan. Ilmiy xatolarga yo'l qo'yilmagan bo'lsa	5
2.	O'quvchi tomonidan savolga javob mazmunan umumiy ravishda ochib berilgan bo'lsa, ilmiy xatoliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa	4
3.	O'quvchi tomonidan savolga javob qisman ochib berilgan bo'lsa, qupol ilmiy xatoliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa	3
4.	O'quvchi tomonidan savolga javob berishga uringan, lekin javobi mazmunan noto'g'ri bo'lsa	2
5.	O'quvchi savolga umuman javob bera olmasa	1

**Atamalarning mazmun-mohiyatini ochib berishga qaratilgan topshiriq
javoblarini baholash mezonlari**

t/r	Baholash mezonlari	Ball
1.	Ikkala atamaning mazmun-mohiyati atroflicha ochib berilgan	5
2.	Bitta atamaning mazmun-mohiyati atroflicha, ikkinchisining mazmun-mohiyati esa qisman ochib berilgan, yoki ikkala atamaning mazmun-mohiyati qisman ochib berilgan	4
3.	Bitta atamaning mazmun-mohiyati ochib berilgan, ikkinchi atamaning mazmun-mohiyati esa ochib berilmagan	3
4.	Faqat bitta atamaning mazmun-mohiyati qisman ochib berilgan	2
5.	Berilgan atamalarning mazmun-mohiyati umuman ochib berilmagan	1

Xarita bilan ishlashga oid amaliy topshiriq javoblarini baholash mezonlari

№	Baholash mezonlari	Ball
1.	Geografik obyektlar xaritadan to'g'ri va aniq ko'rsatilgan, ularning geografik o'rni izohlangan, geografik koordinatalar ilmiy xatolarsiz aniqlangan bo'lsa	5
2.	Geografik obyektlar xaritadan to'g'ri va aniq ko'rsatilgan, ularning geografik o'rni izohlangan, geografik koordinatalarni aniqlashda xatolarga yo'l qo'yilgan bo'lsa	4
3.	Geografik obyektlar xaritadan tahminiy ko'rsatilgan, ularning geografik o'rni izohlanmagan, geografik koordinatalar aniqlashda qupol xatolarga yo'l qo'yilgan bo'lsa	3
4.	Geografik obyektlar xaritadan noto'g'ri ko'rsatilgan, ularning geografik o'rni izohlanmagan, geografik koordinatalar aniqlay olmagan bo'lsa	2
5.	O'quvchi topshiriqni mutlaqo xato bajargan bo'lsa	1

***Izoh:** Amaliy topshiriqlarini bajarish uchun zarur o'quv jihozlari (dunyoning siyosiy xaritasi, O'zbekiston Respublikasining siyosiy-ma'muriy xaritasi) o'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlab qo'yiladi.*

Geografiya

10-sinf

1-BILET

1. Geografiya fanlari tizimi va uning tarkibi.
2. «Demografik portlash» va «Rurbanizatsiya» atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Dunyoning siyosiy xaritasidan to‘laligicha Grinvich meridianidan g‘arbda joylashgan Yevropa davlatlarini ko‘rsating. Ushbu davlatlar poytaxtlaridan birortasining geografik koordinatalarini aniqlang.

2-BILET

1. Demografik o‘tish nazariyasi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi demografik vaziyat.
2. «Geoid» va «Qor chizig‘i» atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. O‘zbekiston siyosiy-ma‘muriy xaritasidan birdaniga uchta davlatga chegaradosh bo‘lgan viloyatlarni ko‘rsating. Ularning qaysi biri ekvatorga yaqinroq joylashgan? Ushbu viloyat markazining geografik koordinatalarini aniqlang.

3-BILET

1. Yerning shakli va uning geografik oqibatlari.
2. «Yonbag‘ir ekspozitsiyasi» va «Deflyatsiya» atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Dunyoning siyosiy xaritasidan Sharqiy Osiyo davlatlari va ularning poytaxtlarini ko‘rsating. Ushbu subregion davlatlari poytaxtlaridan qaysi biri ekvatoridan eng uzoqda joylashgan? Ushbu shaharning geografik koordinatalarini aniqlang.

4-BILET

1. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda sanoat va transportning rivojlanishi.
2. «Geografik qobiq» va «Eroziya» atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Dunyoning siyosiy xaritasidan Skandinaviya davlatlarini ko‘rsating. Ushbu davlatlarning poytaxtlaridan qaysi biri ekvatoridan eng uzoqda joylashgan? Bu shaharning geografik koordinatalarini aniqlang.

5-BILET

1. Yerning Quyosh va o'z o'qi atrofidagi harakati, ularning geografik oqibatlarini.
2. «Migratsiya» va «Madaniy landshaft» atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. O'zbekiston siyosiy-ma'muriy xaritasidan Qozog'istonga chegaradosh bo'lgan respublikamizning hududlarini ko'rsating. Ulardan qaysi birining markazida qolganlariga nisbatan Quyosh eng so'ngra botadi? Bu shaharning geografik koordinatalarini aniqlang.

6-BILET

1. Migratsiyalar va ularning turlari. Xalqaro migratsiyalar geografiyasi.
2. «Nurash» va «Qo'riqxon» atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Dunyoning siyosiy xaritasidan Vest-Indiyani ko'rsating. Vest-Indiyadagi davlatlardan hududining kattaligi bo'yicha eng yirigi qaysi? Ushbu davlat poytaxtining geografik koordinatalarini aniqlang.

7 -BILET

1. Geografiya antik davrda va O'rta asrlardagi rivojlanishi.
2. «Urbanizatsiya» va «Delimitatsiya» atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Dunyoning siyosiy xaritasidan Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'lgan davlatlarni ko'rsating. Ulardan qaysi birining maydoni eng yirik? Ushbu davlat poytaxtining geografik koordinatalarini aniqlang.

8-BILET

1. Potsdam va Belovej geosiyosiy bosqichlarining o'ziga xos xususiyatlari.
2. «Buyurtmaxona» va «Karst» atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. O'zbekiston siyosiy-ma'muriy xaritasidan Sirdaryo daryosi oqib o'tadigan respublikamizning viloyatlarini ko'rsating. Ulardan qaysi birining markazi Grinvidan eng uzoqda joylashgan? Bu shaharning geografik koordinatalarini aniqlang.

9-BILET

1. Geotizimlar va ularning pog'onasimonligi.
2. «Makroiqtisodiy geografik o'rin» va «Fatsiya» atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Dunyoning siyosiy xaritasidan Markaziy Amerika davlatlarini ko'rsating. Ulardan qaysi birida tong birinchi bo'lib otiladi? Ushbu davlat poytaxtining geografik koordinatalari aniqlang.

10-BILET

1. Markaziy Osiyoning geografik o'rni va siyosiy xaritasi, tabiiy sharoiti va resurslari.
2. «Afeliy» va «Kenglik zonalligi» atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. O'zbekiston siyosiy-ma'muriy xaritasidan respublikamizning chekka nuqtalarini ko'rsating. Ulardan qaysi birida Quyosh birinchi bo'lib chiqadi? Ushbu nuqtaning geografik koordinatalarini aniqlang.

11-BILET

1. Yerning ichki tuzilishi.
2. «Global shaharlar» va «Demografik siyosat» atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Dunyoning siyosiy xaritasidan Kaspiy dengizini ko'rsating. Uning sohilida qaysi poytaxt shahar joylashgan? Uning geografik koordinatalarini aniqlang.

12-BILET

1. Insoniyatning global muammolari haqida umumiy tushuncha. Tinchlik va xavfsizlikni saqlash muammosi.
2. «Litosfera» va «Perigeliy» atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. O'zbekiston siyosiy-ma'muriy xaritasidan Qizilqum cho'lida joylashgan Navoiy viloyatidagi ikkita shaharni ko'rsating. Ulardan qaysi biri ekvatorдан uzoqroqda joylashgan? Bu shaharning geografik koordinatalarini aniqlang.

13-BILET

1. Zamonaviy geoxronologik shkala va uning bosqichlari.
2. «Antropogen landshaft» va «Tashqi migratsiya» atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Dunyoning siyosiy xaritasidan "Katta yettilik" guruhiga kiradigan davlatlarni ko'rsating. Ulardan qaysi birining poytaxti ekvatorga eng yaqin joylashgan? Ushbu shaharning geografik koordinatalarini aniqlang.

14-BILET

1. AQSH, Rossiya va Xitoyning zamonaviy geosiyosiy rivojlanishi.
2. «Geotizim» va «Seysmik mintaqa» atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. O'zbekiston siyosiy-ma'muriy xaritasidan ham Qozog'iston, ham Tojikiston bilan chegaradosh bo'lgan respublikamizning viloyatlarini ko'rsating. Bu viloyatlar markazlaridan qaysi biri Grinvichga eng yaqin joylashgan? Bu shaharning geografik koordinatalarini aniqlang.

15-BILET

1. Zilzila va vulqonlar. Seysmik mintaqalar. 12-ballik seysmik shkala.
2. «Mayatniksimon migratsiya» va «Geografik prognoz» atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Dunyoning siyosiy xaritasidan Mustaqil davlatlar hamdo'stligiga a'zo bo'lgan davlatlarni ko'rsating. Ulardan qaysilari to'laligicha Yevropada joylashgan? Ushbu davlatlar poytaxtlaridan birining geografik koordinatalarini aniqlang.

16-BILET

1. Yevropaning subregionlarga bo'linishi. Janubiy Yevropa mamlakatlariga umumiy tavsif.
2. «Balandlik mintaqalanishi» va «Tabiat yodgorligi» atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. O'zbekiston siyosiy-ma'muriy xaritasidan respublikamizdagi ekvatorga eng yaqin shaharni ko'rsating. U qaysi viloyatda joylashgan? Bu shaharning geografik koordinatalarini aniqlang.

17-BILET

1. Geografik qobiqdagi tabiat hodisalarining ritmikligi va uning turlari.
2. «Urbanizatsiya» va «Texnik ekinlar» atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Dunyoning siyosiy xaritasidan Janubiy Osiyo davlatlarini ko'rsating. Ushbu davlatlardan qaysi birining poytaxti ekvatoridan eng uzoqda joylashgan? Ushbu shaharning geografik koordinatalarini aniqlang.

18-BILET

1. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi. Shanxay hamkorlik tashkiloti.
2. «Glyatsiologiya» va «Geyzer» atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. O'zbekiston siyosiy-ma'muriy xaritasidan Zarafshon daryosi oqib o'tadigan respublikamizning viloyatlarini ko'rsating. Ulardan qaysi birining markazi respublikamiz poytaxtiga eng yaqin masofada joylashgan? Bu shaharning geografik koordinatalarini aniqlang.

19-BILET

1. Balandlik mintaqalanishi qonuniyati, uning sabablari.
2. «Ichki migratsiya» va «Tibbiy geografiya» atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Dunyoning siyosiy xaritasidan Shimoliy Yevropa davlatlarini ko'rsating. U davlatlar poytaxtlaridan birining geografik koordinatalarini aniqlang.

20-BILET

1. Lotin Amerikasi: geografik o'ri, siyosiy xaritasi va aholisi.
2. «Mantiya» va «Sektorlik» atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. O'zbekiston siyosiy-ma'muriy xaritasidan Tojikistonga chegaradosh bo'lgan respublikamizning viloyatlarini ko'rsating. Ulardan qaysi birining maydoni eng kichik? Bu viloyat markazining geografik koordinatalarini aniqlang.

21-BILET

1. Geografik qobiqning zonalligi, uning jamiyat hayotiga ta'siri.
2. «Transchegaraviy daryo» va «Depopulyatsiya» atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Dunyoning siyosiy xaritasidan Lotin Amerikadagi hududini ekvator chizig'i kesib o'tgan davlatlarni ko'rsating. Ulardan qaysi birida davlat tili portugal tili hisoblanadi? Ushbu davlat poytaxtining geografik koordinatalari aniqlang.

22-BILET

1. Markaziy Osiyo davlatlarining aholisi va iqtisodiyoti.
2. «Galaktika» va «Geoxronologiya» atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. O'zbekiston siyosiy-ma'muriy xaritasidan Qirg'izistonga chegaradosh bo'lgan respublikamizning viloyatlarini ko'rsating. Ulardan qaysi birining maydoni eng kichik? Bu viloyat markazining geografik koordinatalarini aniqlang.

23-BILET

1. Antropogen landshaftlar va ularning tasniflanishi.
2. «Demografik siyosat» va «Mikroiqtisodiy geografik o'rin» atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Dunyoning siyosiy xaritasidan Lotin Amerikasining to'laligicha ekvator dan janubda joylashgan davlatlarini ko'rsating. Ushbu davlatlarning poytaxtlaridan qaysi birida Quyosh qolganlariga nisbatan so'ngra botadi? Ushbu shaharning geografik koordinatalarini aniqlang.

24-BILET

1. Okeaniya davlatlarining tabiiy resurslari, aholisi va xalqaro ixtisoslashuvi.
2. «Geoid» va «Surilma» atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. O'zbekiston siyosiy-ma'muriy xaritasidan Turkmanistonga chegaradosh bo'lgan respublikamizning hududlarini ko'rsating. Ulardan qaysi birining maydoni eng kichik? Bu viloyat markazining geografik koordinatalarini aniqlang.

25-BILET

1. Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va ularning turlari.
2. «Demografik portlash» va «Anklav davlat» atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Dunyoning siyosiy xaritasidan Lotin Amerikasidagi okeanga chiqish imkoniyati bo'lmagan 2ta davlatni ko'rsating. Ulardan qaysi birining poytaxti ekvator dan

uzoqroqda joylashgan? Ushbu shaharning geografik koordinatalari aniqlang.

26-BILET

1. Afrikaning subregionlarga bo'linishi. Shimoliy Afrika mamlakatlarining o'ziga xos xususiyatlari.
2. «Geotizim» va «Geomorfologiya» atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. O'zbekiston siyosiy-ma'muriy xaritasidan faqat bitta davlat bilan chegaradosh bo'lgan respublikamizning viloyatlarini ko'rsating. Ulardan qaysi birida qolganlariga nisbatan Quyosh eng so'ngra botadi? Bu viloyat markazining geografik koordinatalarini aniqlang.

27-BILET

1. Tabiiy geografik jarayonlar.
2. «Urbanizatsiya» va «Geografik baholash» atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Dunyoning siyosiy xaritasidan Janubi-Sharqiy Osiyodagi yarimorol mamlakatlarini ko'rsating. Ulardan qaysi birining poytaxti ekvatorga eng yaqin joylashgan? Ushbu shaharning geografik koordinatalari aniqlang.

28-BILET

1. Lotin Amerika davlatlarining tabiiy sharoiti va resurslari, xalqaro ixtisoslashuvi.
2. «Yonbag'ir ekspozitsiyasi» va «Abraziya» atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. O'zbekiston siyosiy-ma'muriy xaritasidan Toshkent viloyatidagi eng janubiy shaharni ko'rsating. Bu shahar qaysi daryoning sohillarida joylashgan? Ushbu shaharning geografik koordinatalarini aniqlang.

29-BILET

1. Geoekologik muammolar va ularning hududiy darajalari. O'zbekistonning geoekologik muammolari.
2. «Global shaharlar» va «Madaniy landshaft» atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Dunyoning siyosiy xaritasidan Markaziy Osiyo davlatlarini ko'rsating. Ulardan maydoni va aholisi jihatidan eng kichiklarini ajrating. Ushbu davlatlar poytaxtlaridan birining geografik koordinatalarini aniqlang.

30-BILET

1. Osiyoning subregionlarga bo'linishi. Sharqiy Osiyo siyosiy xaritasi, davlatlarining iqtisodiy rivojlanishi.
2. «Fatsiya» va «Afeliy» atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. O'zbekiston siyosiy-ma'muriy xaritasidan asosan cho'l yaylovlaridan iborat bo'lgan respublikamizning 3 ta hududini ko'rsating. Bu hududlar markazlaridan qaysi biri ekvatorga eng yaqin joylashgan? Bu shaharning geografik koordinatalarini aniqlang.